



## O'ZBEK TILI IJTIMOIY FUNKSIYALARINING KENGAYISHI: JAMIYATDAGI O'ZGARISHLAR VA TIL RIVOJI

**Nuriddinova Xurshida Avazovna.**

*Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani*

*1- umumi o'rta ta'lim maktabi*

*2- Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada yoshlarni mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida davlat tilining imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga oid masalalar, Davlat tili haqidagi hujjatlar va ularning mazmun mohiyati; o'zbek adabiy tili me'yorlari, o'zbeklotin alifbosining imlo qoidalari, sohaviy leksika va uning xususiyatlari, o'zbek tilida soha terminlarining qo'llanilishi, nutq uslublari, sohalarda rasmiy-idoraviy ish hujjatlarining yuritilishi, ularning turlari; mutaxassis nutqining kommunikativ sifatlari hamda ilmiy tadqiqot olib borish masalalari bo'yicha zaruriy bilimlar haqida ma'lumot berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *O'zbek tili, ijtimoiy funksiyalar, leksiya, adabiy til, nutq, monolog.*

## РАСШИРЕНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ ФУНКСИЙ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА: ИЗМЕНЕНИЯ В ОБЩЕСТВЕ И РАЗВИТИЕ ЯЗЫКА

**Аннотация:** В данной статье молодежь будет ознакомлена с вопросами, связанными с полным и правильным использованием возможностей государственного языка во всех сферах общественной жизни нашей страны, документами о государственном языке и их содержанием; стандарты узбекского литературного языка, правила правописания узбекско-латинского алфавита, полевая лексика и ее особенности, употребление полевых терминов в узбекском языке, стили речи, ведение документов служебно-ведомственного труда по полям, их виды; дается информация о коммуникативных качествах экспертной речи и необходимых знаниях по вопросам проведения научных исследований.

**Ключевые слова:** узбекский язык, социальные функции, лекция, литературный язык, реч, монолог.

## YEXPANSION OF THE SOCIAL FUNCTIONS OF THE UZBEKI LANGUAGE: CHANGES IN SOCIETY AND LANGUAGE DEVELOPMENT

**Annotation:** In this article, young people will be introduced to issues related to full and correct use of the opportunities of the state language in all spheres of social life of our country, documents about the state language and their content; standards of the Uzbek literary language, spelling rules of the Uzbek-Latin alphabet, field lexicon and its features, use of field terms in the Uzbek language, speech styles, maintenance of official-





*departmental work documents in fields, their types; information is given on the communicative qualities of yexpert speech and the necessary knowledge on the issues of conducting scientific research.*

**Key words:** *Uzbek language, social functions, lecture, literary language, speech, monologue.*

*Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligidan timsoli, beba ho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir.*

*(O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev)*

Kishilar hamma vaqt bir-birlari bilan muomalada bo'ladilar. Til vositasida o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini ifodalaydilar. Til kishilarning birbirlarini tushunishlariga, yashash uchun vositalar topishda birlashishlariga, ishlab chiqarishni tashkil qilish, tabiat kuchlari bilan kurashishga yordam bergan. Til-aloqa quroli, u vosita. Nutq esa ana shu aloqa jarayonini amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Tilning umri uni yaratgan xalqning umridan uzoq bo'ladi.

Nutqning umri esa qisqadir. Tilning xizmat doirasi juda keng, hajmi o'lchovsiz bo'ladi. Nutq esa aniq hajmli, shaklli bo'ladi. Nutq yakka shaxs (monolog), ikki shaxs (dialog) yoki ko'p shaxs (polilog) o'rtaida bo'lishi mumkin. Nutq yozma va og'zaki bo'ladi. Til kishilarning birgalashib mehnat qilishlarida, boshqa kishilar bilan aloqada bo'lish zaruriyatidan paydo bo'lgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi boshlarida paydo bo'lgan til uzoq davrlar o'tishi bilan o'zgarib, boyib brogan

O'zbek tili – turkiy tillarning qarluq guruhiga mansub tillardan; yangi uyg'ur tili bilan birgalikda qarluq-xorazm guruhchasini tashkil etadi. O'zbek tili asosan, O'zbekistonda, shuningdek, Afg'oniston, Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston, Rossiya, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Xitoy, AQSh, Germaniya va boshqa mamlakatlarda tarqalgan.

Adabiy til – har qaysi xalq va millat ma'naviyatida ulkan ahamiyat kasb etadigan, uning ruhiy olamini moddiy shaklda yuzaga chiqarish va umumbashariy taraqqiyot uchun xizmat qildirish, el-yurtni birlashtirish, o'zlikni anglashda muhim vosita bo'ladigan buyuk ijtimoiy hodisa. Adabiy til umumxalq tilining sayqallangan, lekin, fonetik va grammatik juhatdan shu xalq shevalaridagi eng yaxshi xususiyatlarni o'zida mujassam etib, sayqallangan, hamma uchun tushunarli va ma'qul me'yorga solingan umummilliyl muloqot vositasidir. Tarix va taraqqiyot jarayonida adabiy til o'zgarib, takomillashib boradi. Masalan, Alisher Navoiy davridagi o'zbek adabiy tili hozirgi zamon o'zbek adabiy tilidan farq qiladi. Istiqlol davrida adabiy tilning ma'naviy hayotimizdagi o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, 1989 yil 21 oktabrda o'zbek tiliga davlat maqomining berilishi adabiy tilimiz rivojida mutlaqo yangi sahifa bo'ldi. Hozirgi davrda o'zbek adabiy tili milliy madaniyatimizning haqiqiy ko'zgusiga aylanib bormoqda.





Til rivoji kishilarning turli - tuman tajribalarining takomillashiga, bu tajribalarning avloddan-avlodga o'tishiga imkon bergan. Natijada fan, madaniyat, texnika taraqqiy qilgan, ya'ni kishilik jamiyati rivojlangan. Tilning rivojlanishi jamiyat rivojlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ijtimoiy hayotda ro'y bergan o'zgarishlar tilda aks etadi. Bu o'zgarishlar hammadan ko'proq tilning lug'at boyligida o'z ifodasini topadi. Yangi narsa-buyum va tushunchalarning keng iste'moldan chiqib ketishi hammadan avval tilning lug'at boyligida o'zgarish bo'lishiga olib keadi.

BMTning ma'lumotlariga ko'ra, 1999-yilda yer yuzi aholisi 6 mln.ga yetdi. Dunyodagi xalqlar 2976 xil tilda gaplashadi. Shundan 200 tilning har birida 1 mln.dan ortiq ,70 tilning har birida 5 mln.dan ziyod, faqat 13 tilning har birida 50 mln.dan ortiq kishi so'zlashadi. Qolganlarning har birida esa 1mln.dan ortiq kishi gaplashadi. Kavkaz tog'larining bag'rida joylashgan Dog'istonda 1mln.dan ortiq xalq bo'lib, ular 40ga yaqin tilda so'zlashadi. Dunyodagi tillar kelib chiqishi lug'aviy va grammatik jihatdan yaqinligiga qarab bir necha til oillalariga bo'linadi. Yer yuzida 20ga yaqin til oilasi bor.

Lotin tili ko'p asrlar davomida tirik til bo'lgan: antik davrda rimliklar va Rim imperiyasidagi ko'p xalqlar lotin tilida gaplashganlar. Bu tilda hozir ham o'rta va oliv tibbiyot o'quv yurtlarida xabardor qilinadi. O'lik til hisoblanadigan qadimgi xorazmiy tili va yozuvi eroniy tillarning sharqiy turkumiga mansub bo'lib, qadimiy Xorazm aholisi shu tilda gaplashgan. Qadimgi xorazmiy tili XI asrlarga kelib iste'moldan qolgan va o'lik tilga aylangan.

Jamiyatning turli sohalarida o'zbek tili ijtimoiy funksiyalarining kengayishi

Til birlklari ijtimoiy qo'llanilishi nuqtai nazaridan nutq sharoitiga bog'liq ravishda vazifalanishni kasb etadi. Ayrim lug'aviy birlik garchi sinonimik qator tarkibida turishiga qaramay, semantik tarkibidagi ma'no nozikligiga ko'ra og'zaki yoki badiiy nutq uchun xoslanganligi bilan farqlanadi. Til birlklarining ijtimoiy fuksionallashuvi lug'viy birlklarning ayni mana shu xususiyatidan kelib chiqadi. O'zbek tilida til ijtimoiy vazifalanishida beshta uslub turi farqlanib, ularning barchasi fonetik-fonologik, leksik-semantik hamda grammatik imkoniyati va o'ziga xosligi bilan farqlanadi. Tilni funksional uslublarga ajratish masalasi munozarali jarayonlarni boshdan kechirgan bo'lib, so'zlashuv, ilmiy, rasmiy, publitsistik uslub turlari orasida badiiy uslubni ajratmaslik kerak, sababi bu uslubni, tom ma'noda, o'ziga xos lisoniy mezonlari yo'q degan qarashlar bilan bog'liqdir. Aslida esa unday emas, sababi bu uslub turi o'ziga xos badiiylik, obrazlilik kashf etishi va eng asosiysi estetik tarbiya berishi va tashishi bilan boshqa uslub turlaridan tubdan farq qiladi. Uslublar ichida eng qadimiysi sanaluvchi uslub turi bu rasmiy uslub hisoblanib, u xalqimizning uzoq o'tmish-tarixidan beri qo'llanilib kelinayotganligini belgilash mumkin.

Yuqorida sanalgan uslublar adabiy tilning og'zaki va yozma shakli bilan xos bo'lgan tilning fuksionallashuvi imkoniyatidan kelib chiqadigan hodisadir.

Til ijtimoiy funksiyalari kengayishining so'z semantik strukturasiga ta'siri

So'zning leksik ma'nosi qotib qolgan, o'zgarmas hodisa emas, u ancha barqaror bo'lsa-da, ma'lum omillar ta'sirida, uzoq yillar davomida o'zgarishi ham mumkin.





Bunday o'zgarishlarga sabab bo'ladigan omillar ikki xildir: 1) lisoniy (lingvistik) omillar - til birliklarining til sistemasi ichidagi munosabatlari

Masalan, tilning lug'at boyligidagi aniq va ochiq leksemalari kontekstual sinonimiya munosabatida bo'lishi mumkin: aniq gapirmoq va ochiq gapirmoq kabi, ammo - ochiq eshik||ni –aniq eshik|| deb bo'lmaydi, bunga aniq va ochiq leksemalarining ma'no xususiyatlaridagi o'ziga xosliklar, ularning valentlik imkoniyatlari yo'l qo'yaydi; 2) nolisoniy (yekstralingvistik) omillar - ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, xalqlar o'rtasidagi madaniy-ma'rifiy aloqalar, ong, tafakkur rivoji, bilingvism (ikki tillilik) yoki polilingvism (ko'p tillilik) kabi jarayonlar. Bunday omillar tilga, ayniqsa, uning leksikasiga doimiy ta'sir o'tkazib turadi, ayrim leksemalarning semantik tarkibida yangi leksik ma'nolarning yuzaga kelishiga ham sabab bo'ladi. Masalan, oyoq leksemasi dastlab inson a'zolaridan birini nomlagan, keyinchalik u xontaxta, kursi, stol, stul, karavot kabi mebellarning –oyog'i||ni ham atay boshlagan: xontaxtaning oyog'i, kursining oyog'i, stolning oyog'i, karavotning oyog'i kabi. Bunga inson yashab turgan muhitda turli-tuman mebeljihozlarning paydo bo'lganligi, shu bilan bog'liq ravishda inson ongida yangi tasavvurlarning yuzaga kelganligi, nihoyat, til bilan ijtimoiy hayot, ong va tafakkur o'rtasidagi murakkab aloqalar sabab bo'lgan


Demak, so'z-leksemaning leksik ma'nosi yuqorida keltirilgan omillar ta'sirida o'zgarib turadi, leksik ma'no taraqqiyoti deyilganda shular nazarda tutiladi. Bunday taraqqiyotning yo'llari ham har xil: ma'noning ko'chishi, kengayishi va torayishi, bundagi miqdor va hajm o'zgarishlari shular jumlasidandir.

Ma'noning ko'chishi - bir predmet (yoki hodisa) nomining keyinchalik boshqa predmet yoki hodisani anglatish xususiyatiga ega bo'lishi. Bunday ko'chish shu nom bilan atalayotgan ikki yoki undan ortiq predmet (hodisa) o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Masalan, nafas leksemasining bosh (to'g'ri) ma'nosi –o'pkaga olinadigan va undan chiqariladigan havodir, ammo nafasingizni iliq qiling deganda nafas leksemasi –havo||ni emas, –gapni va –niyat||ni ifodalamoqda, chunki nafas olish va nafas chiqarishsiz gap shakllanmaydi, gapsiz esa fikr-niyat ifodalanmaydi: nafas, gap, fikr-niyat o'rtasidagi ana shu aloqa va bog'lanish nafas leksemasining mazmun mundarijasidagi ma'no ko'chishlariga sabab bo'lgan. Tilda ma'no ko'chishining quyidagi turlari bor:

### 1. Metafora yo'li bilan ko'chiriladi:

a) ifodalanayotgan predmetlar (hodisalar) o'rtasidagi shakliy o'xshashlik asosida: burun (–odamning burni||- bosh leksik ma'no) - burun (–choynakning burni||- hosila ma'no); b) ikkita belgi-xususiyat o'rtasidagi nisbiy o'xshashlik asosida: tez (–oz vaqt ichida, darrov|| – bosh leksik ma'no: majlis tez tugadi) - tez (–darrov achchiqlanadigan, jizzaki|| – hosila ma'no: tez odam); cho'qqi (–tik narsalarning eng yuqori nuqtasi|| – bosh leksik ma'no: tog'ning

O'zbek adabiy tili haqida tushuncha





Adabiy til haqida gap borganda, avvalo, adabiy til -xalq tilining, milliy tilning oliv shakli deyilgan ta'rifga duch kelamiz. Adabiy tilning oliv shaklligi bu tilning o'ziga xosligida, uning o'ziga xos belgilari va vazifasida ko'rindi.

Adabiy til xalq tili negizida yuzaga keladi. Adabiy tilning paydo bo'lishi va uni yaratishdan maqsad umumxalq ommaviy aloqa vositasini yaratishdir. Adabiy tildan rasmiy davlat tili sifatida foydalanish bu tilning ijtimoiy-siyosiy sohalar tili, rasmiy muomala va yozishmalar tili, idoraviy ishlar va hujjatlar tili, diplomatik aloqalar tili, ilmiy uslublar tili, badiiy adabiyot va sahna tili, maorif, madanit tili kabi ko'p yo'nalishlarda rivoj topishi uchun yo'l ochadi. Bu hol adabiy tilning ko'p vazifali xususiyatini yuzaga keltiradi. Adabiy tilning ko'p qirrali va murakkab vazifalari adabiy tilning usluban tarmoqlanishiga, adabiy til doirasida xilma-xil nutqiy uslublarning yuzaga kelishiga olib keladiki, bu milliy adabiy tillarga xos muhim xususiyatlardan biridir

Adabiy tilning me'yordanishi, bu me'yordarning muayyan qoidalarga olinishi aslida adabiy tilning umumxalq quroli, umumxalq mulki ekanligi bilan bog'liqdir. Adabiy til o'zaro aloqa vositasi sifatida o'zi xizmat qilayotgan millatning barcha vakili uchun umumiyyidir. Adabiy tilning qabul qilingan, qoidalashtirilgan me'yordariga barcha joyda, barcha kishilar (yozuvda va so'zlovchilar) tomonidan bir xilda amal qilinadi. Chunki adabiy til barcha tomonidan milliy tilning namunali va ishlangan shakli deb qabul qilinadi va tan olinadi. Shunga ko'ra ham adabiy tilning ko'pchilik tomonidan qabul qilingan va ma'qullangan me'yordariga, bu me'yordarga doir qoidalarga amal qilish, unga bo'y sunish hamma uchun majburiydir

Bunday umummajburiy me'yordar va qoidalari adabiy tilning so'z qo'llash va so'z yasash, gap tuzish, so'zlarni yozish va talaffuz qilish kabi barcha sohalarida ham mavjuddir. Adabiy tilda to'g'ri so'zlash va yozish uchun mana shu me'yordar, ular haqidagi qoidalarni bilish, o'zlashtirish lozim. Ba'zan adabiy tilni bir yoqlama va noto'g'ri tushunish va tushuntirish hollariga ham duch kelamiz. Bunda adabiy til deb faqatgina ro'znama tili, ilmiy asarlar tili va badiiy adabiyot tili ko'zda tutiladi. Bunda adabiy tilning og'zaki shakli hisobga olinmaydi. Shuningdek, ba'zi hollarda adabiy til faqatgina yozma til orqali qolipga solinadi, adabiy til me'yordar yozma nutqdagina to'la saqlanadi, deyilgan mulohazalar ham bildiriladi. Keltirilgan fikrlardan adabiy tilning og'zaki shakli me'yordangan emas ekan-da, adabiy til og'zaki shaklida adabiy til me'yordariga to'liq rioya qilish shart emas ekan-da, deyilgan noto'g'ri fikrga kelish mumkin. O'zbek tilini ongli ishslash, bu til me'yordarining shakllanish va takomilida 1920-1940 yillarda ijod qilgan yetakchi o'zbek yozuvchilari, jurnalistlar, turli fan olimlari, ayniqsa, tilshunoslar, shuningdek, radio muhim rol o'ynadi. Natijada o'zbek adabiy tili takomillashgan milliy, adabiy til darajasiga ko'tarildi. Uning to'g'ri yozish va to'g'ri so'zlash uchun lozim bo'ladigan til vositalari takomillashdi va silliqlandi. Adabiy tilning mana shu holati til madaniyatini, ya'ni madaniylashtirilgan tilni bildiradi. Demak, tilni ongli ravishda qayta ishslash natijasida madaniy til yuzaga keladi. Bu madaniy til -adabiy tildir. Madaniy adabiy tilni yuzaga keltirish uchun olib boriluvchi





faoliyat jarayoni adabiy til madaniyati uchun harakat, kurashdir. Shuning uchun adabiy til madaniy til deb ataladi. Adabiy, ya'ni madaniy tilni yuzaga keltirishdan maqsad – to'g'ri so'zlash, to'g'ri yozish qurolini yuzaga keltirishdir. Bu qurol faol foydalanilgandagina va jamiyat a'zolarining o'zaro aloqasi uchun muvaffaqiyatli xizmat qila olgandagina uning haqiqtan ham madaniy til ekanligi tasdiqlanadi. Demak, madaniy adabiy til bo'lisl bilan bir qatorda bu tildan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan nutqiy jarayon, faoliyat ham mavjuddir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish (amaliy qo'llanma). – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – 456 b.
2. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. (Darslik) – Toshkent: Cho'lpon, 2013.
3. Abdurahmonova M., Fattaxova D., Xalmuxamedova U., Inogamova N., Egamberdiyeva N. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). – Toshkent: Mumtoz so'z, 2018.
- Rasulov R. Mirazizov A. O'zbektili. OO'Y rus guruhlari uchun darslik. T.: Aloqachi. 2005.
1. Rasulov R. Mirazizov A. O'zbek tili. O'rta maxsus ta'limmuassasalari rus guruhlari uchun qo'llanma. T.: Fan va texnologiyalar. 2007.
2. Adilova S., To'xtamirzayev M. O'zbek tili.
3. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'Mdoshev I. Davlat tilida ish yuritish. Akademik litseylar uchun darslik. T.: Sharq. 2004.
5. M. Usmonova, E. Azlarov., G'. Sharipov. O'zbek tili T., 1987
6. O'. Hoshimov. Daftor hoshiyasidagi bitiklar T., 2006.

